



SOCIAL-EDUCATIONAL ANALYSIS OF WOMEN'S ACTIVITY IN THE JADIDIST MOVEMENT IN TURKESTAN AND AXIOLOGICAL ASSESSMENT OF THEIR PLACE IN MODERN UZBEKISTAN

Shoira Azizovna Rasulova

*Senior Lecturer, Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadidism movement, Female Jadids, Social activism, Enlightenment movement, Axiological analysis, Gender equality, Turkestan, National revival, Women's education, Women's press, New Uzbekistan, State policy.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: This scientific article analyzes the social and educational activity of women in the Jadidist movement in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. For many years, the activities of mainly male Jadidists - thinkers such as M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy - have been studied as the main driving force of this movement. As a result, the traditional view was formed that Jadidism was an exclusively male movement. However, modern historical research and newly discovered sources show that the practical implementation of the ideas of national revival, including the establishment of new method schools, the development of the press, and charitable work, was a process that would not have been possible without the active participation of female Jadids. The article rejects the traditional view that Jadidism was an exclusively male movement and aims to scientifically substantiate the decisive role of female Jadids in the process of national revival, the elimination of illiteracy, and the modernization of society.

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA AYOLLAR FAOLLIGINING IJTIMOYIY-MA'RIFIY TAHLILI VA ULARNING ZAMONAVIY O'ZBEKISTONDAGI O'RNINING AKSIOLOGIK BAHOSI

Shoira Azizovna Rasulova

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Jadidchilik harakati, Ayol jadidlar, Ijtimoiy faollik, Maʼrifiy harakat, Aksiologik tahlil, Gender tengligi, Turkiston, Milliy uygʻonish, Xotin-qizlar taʼlimi, Ayollar matbuoti, Yangi Oʻzbekiston, Davlat siyosati.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda kechgan jadidchilik harakatida xotin-qizlarning ijtimoiy va maʼrifiy faoliyati tahlil qilinadi. Uzoq yillar davomida bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida asosan erkak jadidlar – M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy kabi mutafakkirlarning faoliyati oʻrganib kelindi. Natijada, jadidchilik faqat erkaklar harakati boʻlganligi haqidagi anʼanaviy qarash shakllangan edi. Biroq, zamonaviy tarixiy tadqiqotlar va yangi kashf etilgan manbalarning koʻrsatishicha, milliy uygʻonish gʻoyalari amalda hayotga tatbiq etilishi, jumladan, yangi usul maktablari tashkil qilinishi, matbuotning rivojlanishi va xayriya ishlari aynan ayol jadidlarning faol ishtirokisiz amalga oshmaydigan jarayon edi. Maqolada jadidchilik faqat erkaklar harakati boʻlganligi haqidagi anʼanaviy qarashlarni rad etib, ayol jadidlarning milliy uygʻonish, savodsizlikni tugatish va jamiyatni modernizatsiyalash jarayonidagi hal qiluvchi rolini ilmiy asoslashga qaratilgan.

**СОЦИАЛЬНО-ПРОСВЕЩАТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЖЕНСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
ДЖАДИДИСТСКОМ ДВИЖЕНИИ В ТУРКЕСТАНЕ И АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ
ОЦЕНКА ИХ МЕСТО В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

Шоира Азизовна Расулова

Старший преподаватель

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: движение джадидизма, женщины-джадидки, социальный активизм, просветительское движение, аксиологический анализ, гендерное равенство, Туркестан, национальное возрождение, женское образование, женская пресса, Новый Узбекистан, государственная политика.

Аннотация: В данной научной статье анализируется социально-просветительская деятельность женщин в джадидистском движении в Туркестане в конце XIX и начале XX веков. В течение многих лет в качестве основной движущей силы этого движения изучалась деятельность преимущественно мужчин-джадидистов — мыслителей, таких как М. Бехбудий, А. Фитрат, А. Авлоний. В результате сформировалось традиционное представление о джадидизме как об исключительно мужском движении. Однако современные исторические исследования и вновь обнаруженные

источники показывают, что практическая реализация идей национального возрождения, включая создание новых методических школ, развитие прессы и благотворительной деятельности, была процессом, который был бы невозможен без активного участия женщин-джадидок. В статье отвергается традиционное представление о джадидизме как об исключительно мужском движении и ставится цель научно обосновать решающую роль женщин-джадидок в процессе национального возрождения, искоренения неграмотности и модернизации общества.

Kirish. Millatimiz tarixidan ma'lumki, o'zbek ayoli, o'zbek onalari nafaqat o'z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mag'rur, jasur va dono, mashhur ayollar -To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiyar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg'or fikrli dunyo ahli uchun ham ahamiyatli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahr va Turkiston hududlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'z davri uchun yirik ijtimoiy-ma'rifiy yangilanish jarayoni bo'lib, u xalqni ilm-fanga, milliy uyg'onishga, zamonaviy dunyoqarashga yetaklashga qaratilgan edi. Bu harakat ilgari asosan erkak jadidlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib qaralsa-da, aslida ayol jadidlar ham bu jarayonning ajralmas, faol va tarixiy jihatdan muhim ishtirokchilari bo'lgan. Ushbu maqolada jadidchi ayollarning ijtimoiy faolligi, ularning ma'rifiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida shunday fikrlar bor: «Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug'iliboq tiriklayin o'ldirilgani ko'pchilikka ma'lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e'zozlashga buyuradi. «Jannat onalar oyog'i ostidadir» degan naql asrlar osha o'z mavqeyini yo'qotganmagan. Islom ta'limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda «ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir», deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko'proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan bo'lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan». .[7]

Jadidchilik harakatining muhim yo'nalishlaridan biri ayollar taqdirini o'zgartirish, ularni savodsizlikdan, ijtimoiy cheklovlardan chiqarish, ilmga, madaniyatga jalb qilish edi. Jadidlar ayollarning o'qishi, jamiyatda faol bo'lishi, huquq va erkinlikka ega bo'lishi g'oyasini ilgari surdilar. Bunda quyidagi fikrlar asosiy o'rin tutgan ayol tarbiyalangan bo'lsa, kelajak avlod bilimli bo'ladi ayolning o'qimishliligi - oilaning, millatning ma'rifatli bo'lishiga olib keladi ayollar uchun zamonaviy ta'lim, kasb-hunar o'rganish zarurdir. Bu g'oyalar nafaqat erkak jadidlar, balki jadidchi ayollar tomonidan ham amaliy faoliyatga aylantirildi. Jadidchi ayollar o'z faolliklarini, eng avvalo, ta'lim sohasi orqali namoyon etdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar uchun mo'ljallangan yangi usul maktablari (usuli jadid) tashkil etildi. Ushbu maktablarda qizlar arab alifbosi bilan emas, fonetik yozuv asosida tez o'qish va yozishni o'rgandilar matematika, geografiya, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar ham o'qitildi ayollar mustaqil fikrlashga, milliy va insoniy qadriyatlarni anglashga da'vat etildi. Bu maktablar orqali yuzlab qizlar ilk bor savodli bo'lishga erishdi. Ayrim hollarda jadidchi ayollar o'z uylarida maxfiy sinflar ochib, o'qituvchilik qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metod. Jadidchilik harakatida ayollar faolligi mavzusi mustaqillik yillarida yangi metodologik yondashuvlar asosida chuqur o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotda X.O. Shayxova va N.R. Nishonova kabi yetakchi olimlarning ishlari jadidlar merosini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan baholash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Professor, falsafa fanlari doktori X.O. Shayxova o'z ilmiy izlanishlarida xotin-qizlar masalasini milliy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan o'rganishga markaziy o'rin beradi. Olima mustaqillik tufayli "xotin-qizlarning tengligi va ozodligini to'la ro'yobga chiqarish, yangicha tafakkur, erkin fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy hayotda ayolga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish..."[4] zarurati davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanganini ta'kidlaydi. Bu g'oya jadidchi ayollarning maqsadi bilan bevosita bog'lanadi. Jadidlar kurashgan ma'rifiy ozodlik va ijtimoiy tenglik g'oyalari mustaqil O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan qadriyat (aksiologik o'rin) ekanligini Shayxova xulosalari orqali isbotlash mumkin. Ya'ni, jadidlarning harakati hozirgi demokratik islohotlarning tarixiy poydevori hisoblanadi.

N. R. Nishonova o'z tadqiqotlarida xotin-qizlar faoliyatini davlat boshqaruv tizimi doirasida ijtimoiy-falsafiy tahlil qilgan. Uning xulosalariga ko'ra, "Davlatning demokratik xarakteri fuqarolarning, shu jumladan ayollarning ham ijtimoiy-siyosiy faolligiga krateologik mohiyat baxsh etadi, yani demokratiya ayollarning ijtimoiy-siyosiy borliqni takomillashtirishga qaratilgan faolligini taraqqiyot uchun zarur, davlat boshqaruvini rivojlantirishga xizmat qiladigan voqelikka aylantiradi". Bu tahlil jadidchi ayollarning siyosiy qarashlari (masalan, Behbudiy tomonidan ilgari surilgan saylov huquqi) aksiyologik jihatdan qanchalik muhimligini asoslashga xizmat qiladi. Nishonova fikri zamonaviy jamiyatda ayol faolligi nafaqat huquq, balki rivojlanishning strategik

omili ekanligini ko'rsatadi. Bu esa jadidchilik davrida Tojixon va Nozimaxonimlar boshlagan siyosiy va ijtimoiy faoliyatning uzviy davomi va mantiqiy xulosasi ekanini tasdiqlash imkonini beradi.[5]

Muhokama. Jadidchi ayollar o'z davrining murakkab sharoitiga qaramay, faqat ta'lim emas, ijtimoiy va madaniy sohalarda ham faol bo'lishgan. Ayollar matbuotda ham faol ishtirok etganlar. Ayollar jadid matbuotida maqolalar yozib, ayollarning huquqlari, ta'limi, oiladagi o'rni, erkaklar bilan tenglik haqida chiqishlar qilishgan. Masalan: «Islohot», «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Hurriyat» gazetalarida ayollar maqolalari chop etilgan. «Ayollar dunyosi» (1917) - ilk ayollar jurnali bo'lib, unda ayollar muallifligidagi maqolalar jamlangan. "[6] Xayriya va tashkilotchilik faoliyati olib borilgan. Jadidchi ayollar kambag'al oilalarga yordam, beva-bechoralarga homiylik, ayollar uchun tikuvchilik, saboq o'rgatuvchi to'garaklar ochishgan. Milliy ozodlik harakatlarida ishtirok etishgan. Ayrim ayollar milliy uyg'onish va siyosiy harakatlarga ham qo'shilgan. Ular ma'rifat targ'iboti orqali millatni uyg'otish yo'lida xizmat qilgan. Jadidchilikning ayollarga oid asosiy maqsadlaridan biri - xotin qizlarning savodxonligi, ta'lim olish huquqi, ijtimoiy siyosiy faol qatlam sifatida shakllanishi edi. Ayollar jadidchilik harakati orqali jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qildilar. Jadidchilik harakatidagi ayollar ta'limi rivojlandi. Turkiston jadidlari qizlar uchun maxsus darslar tashkil etdi. Masalan, Toshkentdagi Eshonxo'ja Xonxo'jayev, Sobir Rahimov, Qo'qon shahridagi Muhammadjon Xoliqiy kabi ziyolilarning maktablarida qizlar o'qishga jalb qilindi. Ba'zan buni rasmiy maktablar, ba'zan uy sharoitida tashkil etilgan «uy sinflar» orqali amalga oshirildi.

Abduqodir Shakuriy uyida xotini Roziyaxonim muallimlik qilib, qizlar ta'limida faol qatnashgan. Abdurauf Fitratning singlisi Mahbuba Rahim ham birinchi jadid ayollaridan bo'lib, turli adabiy to'garaklarga homiylik qilgani qayd qilingan. Matbuot orqali ogohlik ishlarida ayollar ijtimoiy faol ishtirok eta boshladilar. Jadid matbuotida ayollar mavzusi keng muhokama qilindi. Ularning saylovda qatnashishi, jamiyatda teng a'zo bo'lishi, sog'liq, huquq, meros masalalari Mohammadxo'ja Behbudiy, Ahmad Zaki Validiy, Tojixon va Nozimaxonlar tomonidan ilgari surildi. Behbudiy masalan ayollarni saylovda ishtirok etishga: «Millatning yigirma yoshiga yetub ahliyat paydo qilgan har bir fardi: er bo'lsin, xotun bo'lsin ... saylamoq va saylanmak haqina molikdur».[8] Tojixon esa Qo'qonda ayollar huquqlari, ularning zamonaviy ta'limi haqida murakkab maqolalarni gazetalarda nashr ettirgan. Quyidagi qator ayollar jadidchilik harakatida faol ishtirok etgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Nozimaxonim va Laylixonim kabi ayollar matbuotda (gazeta/jurnallar) o'z fikrlarini e'lon qilgan. Ular ayollarning ilm, hunar va san'atga o'rganishi kerakligini ta'kidlagan. Qo'qonda yashagan Tojixon xotin qizlarning huquqlari, ayniqsa savodli bo'lishi va matbuotda jamiyat haqidagi nutqlarini e'lon qilishga alohida urg'u bergan. 1922 yilda Germaniyaga yuborilgan jadid ayollardan biri - Xayriniso Majidova tibbiyot

yoʻnalishida tahsil olib, chekka hududlarda pediatrik koʻriklar tashkil qilgani, yangi davolash usullarini joriy qilgani aytiladi. Qoʻqonlik jadid Muhammadjon Xoliqiy maktabida muallima boʻlib, qizlar oʻqitishga masʼuliyat bilan yondashgan.

Natijalar. Soʻnggi yillarda jamiyatdagi oʻzgarishlarga hamohang Oʻzbekistonda xotin-qizlarni qoʻllabquvvatlash borasida alohida eʼtibor berilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: "... bugun Oʻzbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi - ayollarimizga eʼtibor va amaliy gʻamxoʻrlik koʻrsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi oʻrni, maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini taʼminlashdir.[3]

Oʻzbekiston Respublikasining 2-sentabr, 2019 yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"gi OʻRQ-562-son Qonuni qabul qilinganligi ayollarning jamiyatdagi mavqeini yanada koʻtardi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini taʼminlashning asosiy prinsiplari. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini taʼminlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat; qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins boʻyicha kamsitishga yoʻl qoʻyilmaligi, ochiqlik va shaffoflik belgilab qoʻyildi." [2] "2018-yil 2-fevraldagi PF-53-25-son "Xotin-qizlarni qoʻllabquvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choratadbirlari toʻgʻrisida"gi farmoni aynan gender tenglik siyosatini shakllantirgan holda ijrosi bilan bogʻliq masalalarga aniqlik kiritdi". [1] 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarori ham xotin-qizlarga oid davlat siyosatida muhim qadam boʻlib kelmoqda.

Xulosa. Zamonaviy olimlarning adabiyotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, jadidchilik harakatidagi ayollar faolligi masalasi faqat tarixiy voqelik emas, balki gʻoyaviy merosdir bugungi gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining nazariy asosini tashkil qilishda yordam beradi. Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotini taʼminlashdagi muhim strategik resurs sifatida baholanadi. Jadidchilik faoliyatini bugungi kun voqeligi bilan bogʻlovchi, aksiologik baho berishda mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Oʻzbekistonda ayollarning ijtimoiy mavqeini belgilovchi omillar - tarixiy meros, milliy anʼanalar, diniy qadriyatlar va zamonaviy islohotlar bilan uzviy bogʻliqdir. Mustaqillik yillarida gender tengligini taʼminlash, ayollarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Ayollar taʼlim, sogʻliqni saqlash, iqtisodiyot, siyosat va boshqa sohalarda faol ishtirok etmoqda, ularning ijtimoiy faolligi ortib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda saqlanib qolgan ijtimoiy stereotiplar, mehnat bozoridagi tengsizlik va maʼnaviy-maʼrifiy yondashuvlarning yetarli darajada emasligi bu boradagi muammolar saqlanib qolayotganini

ko'rsatadi. Ayollar mavqeini mustahkamlash uchun huquqiy choralardan tashqari, jamiyat ongini o'zgartirishga, gender madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarur. Umuman olganda, ayollarning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish - nafaqat demokratik jamiyat qurish, balki mamlakatning barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi va baxolanadi.[9]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Shayxova X. O. Xotin-qizlar masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: monografiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Nishonova N. R. Ayollar faoliyatini davlat boshqaruvi tizimida ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
6. Erkinov S. E. Turkiston jadidlari: Tarixiy tahlil va aksiologik yondashuv. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Sharq, 2003.
8. Behbudiy M. Saylovda ayollarning ishtiroki masalasi. // Sadoi Turkiston, 1914.
9. Rasulova Sh. A. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda aksiologik yondashuv.- NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-2-son.276.b